https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi
Rayimboyeva Shahnoza Sherzod qizi
bekmonovserzod@gmail.com

PIRIMQUL QODIROVNING “AVLODLAR DOVONI”ASARIDAGI QO‘LLANILISH DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asaridagi dialektal birliklarning leksik-semantik xususiyatlari tahlili qilinadi.

Kalit so‘zlar: Dialektal birliklar, hududiy lahja, dialektalogiya, leksik tahlil, semantik tahlil, sheva, milliy til.

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic characteristics of dialectal units in Pirimqul Kadirov's work "The Passage of Generations".

Keywords: Dialectal units, regional dialect, dialectology, lexical analysis, semantic analysis, dialect, national language.

Аннотация: В статье анализируются лексико-семантические характеристики диалектных единиц в произведении Пиримкула Кадырова «Смена поколений».

Ключевые слова: Диалектные единицы, региональный диалект, диалектология, лексический анализ, семантический анализ, диалект, национальный язык.

Dialekt - umumxalq tilining muayyan chegaralangan hududda joylashgan kishilar jamoasida bevosita aloqa vositasi sifatida qo‘llanuvchi va nisbatan yaxlit lisoniy tizim bilan ajralib turuvchi ko‘rinishidir. Mana shu tizimlardan biri dialektizmlardir. **Dialektizmlar** - adabiy tildagi dialektlarning o‘ziga xos hududiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

unsurlaridir. Dialektizmlar tilshunoslikning barcha sohalariga, xususan, fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqa turlariga taalluqlidir. Badiiy ijodda dialektizmlar ancha keng qo‘llaniladi, asosan, narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg‘u berish maqsadida. Biroq, bunday maqsadda qo‘llash tufayli dialektizmlar adabiy tilga oid bo‘lib qolmayapti. Dialektizmlarni qo‘llash uslublararo cheklangan. Publitsistik uslubda qisman qo‘llaniladi. Ilmiy va rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba’zi so‘zlar adabiy til va dialektlarda qo‘llanadi, shunungdek, boshqa dialektda ham qo‘llanib umuman yangi ma’no ifodalaydi. Masalan “shoti”, “tovoq” Farg‘ona til shevalarida “narvon”, “lagan”ni bildirsa, adabiy tlda “arava shotisi” “kosa o‘xshagan idish” ma’nosini bildiradi. Qolaversa, Xorazm shevasiga xos “nishatamiz” - “nima qilamiz”, “go‘ch” - “mard”, “jasur” ma’nolarini anglatadi. Dialektizmlardan o‘rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman nutqning badiiyligini, uslubning fazilati, ta’sirchanligini oshiradi. Lahja ham xuddi dialektlarning biri. Lahja so‘zi o‘rnida dialekt atamasi ham ishlatiladi. Lahja bir qator kattaroq til tuzilmasi tarkibiga kiradi hamda bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisidir.

Xususan, o‘zbek tili ham ko‘p lahjali til hisoblanadi. Sababi shundaki, o‘zbek tili murakkab tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘ygan, bugungi o‘zbek millati o‘tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega. Uning dialektal asosini qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari tashkil etadi. Qarluq lahjasi, asosan, markaziy shahar shevalari birligidan tashkil topgan bo‘lib, adabiy tildan bir necha farqlanuvchi belgilrga ega. Masalan fonetik jihatdan, ya’ni so‘z tarkibidagi k undoshi y tarzida talaffuz qilinadi.(terak - teray, bilak - bilay) Leksik jihatdan ham farq qiladi.(qalampir - garmdori, narvon - shoti) Morfologik jihatdan farqini ko‘radigan bo‘lsak, qaratqich kelishigi -ning qo‘shimchasi o‘rnida tushum kelishigi -ni qo‘shimchasi ishlatiladi. Qipchoq lahjasi O‘zbekistonning Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlarining qishloqlari shevalari birligidan tashkil topgandir. Bu lahjaning adabiy tildan ham farqlari yo‘q emas.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Fonetik jihatdan farqlanadi, ya'ni ba'zi shevalarda y o'rnida j ishlatiladi.(yo'l - jo'l) So'z oxiridagi g' undoshi v undoshi bilan almashtiriladi.(tog' - tov) So'z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi.(kichik - kichi) Leksik jihatdan ham farqlanadi.(mushuk - pishak, do'ppi - qalpoq) Morfologik jihatdan esa hozirgi zamon davom fe'lida -yapti, -yotir o'rnida -jatir, -votir qo'shimchalari ishlatiladi.(ishlayapti - ishlavotir) Tushum kelishigi -ni o'rnida -di, -ti qo'shimchalari ishlatiladi.

Qipchoq va o'g'uz lahjalarining adabiy tilga ta'siri.

Qipchoq lahjasidan adabiy tilga kirgan so'zlar: qirqim, to'l, sarimoy, chakki, uloq, chalpak, sovliq, patir, bovur, lochira kabi pazandachilik va chorvachilik atamalari. Adabiy tilning rivojlanishiga o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'dhgan. Yoshulli, o'g'lon, qaydin, buyon, qarago'z kabi so'zlarni bunga misol qila olamiz.

O'zbek adabiyotida Pirimqul Qodirov asarlarining o'rni beqiyosdir. Nafaqat adabiyotshunoslikda, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinganda adibning asarlari lingivistik mezonlar va o'lchovlar hamda talablarga juda mos tushadi. Adibning "Avlodlar dovoni" asarini misol qilishimiz mumkin. Unda badiiy nutq, antroponimlar, toponimlar, trazeologizmlar hamda xalqona ifodalar mohirlik bilan keltirilgan. Quyida asardagi dialektal birliklar hamda ularning semantikasi yuzasidan tahlil yuritamiz.

Tolor - yozlik shiypon. Dam olishga mo'ljallangan[1.5]. (Xonzodabegim tolorda xomush qiyofada o'tirar edi)

Chavgon - ot minib o'ynaladigan o'yin. Bu o'yin hozirda O'zbekistonning vodiy taraflarida ham davom etib kelmoqda. Ba'zi jihatlari chim xokkeyni eslatadigan qadimiy o'yindir [1.6]. (Bir to'p otliq qizlar chavgon o'ynamoqda)

Muhtasib - diniy ishlar nazoratchisi bo'lgan. O'sha davrlarda bu lavozim egalari odamlarning ro'za tutishi-yu masjidga namozga kelishigacha qattiq nazorat

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qilishgan. Hozirgi kunda bu lavozim egalari diniy ishlar raisi kabi nomlar bilan yuritiladi[1.20]. (otangizni johil muhtasiblar adashtirgan)

Darra - bambukdan qilingan maxsus tayoq.aholini[1.23]. (Mavkabdan oldin darra ko‘targan qo‘riqchilar yo‘l ochib borar edi)

Kisa - xaltacha. Bugungi tilda - sumka. Keyinchalik esa kiyimga tikiladigan kissa nomini olgan[1.120]. (Hamida bonuning qo‘lida ko‘zmunchoqlar va kashtalar bilan bezatilgan chiroyli atlas kisa bor edi)

Kalontar - aslida eng katta degani. Mazkur asarda esa qishloq oqsoqoli ma’nosida kelmoqda[1.158-bet]. (Humoyunning o‘zi, ayollari va bolalari qishloq kalontarining ichki- tashqi hovlisiga tushdilar)

O‘rda - O‘rta. Qadimda turkiy tilda markaz ma’nosida ishlatilgan[1.249-bet]. (Kobul daryosining shovullashi o‘rda bog‘dan baralla eshitilib turadi)

Figor - afgor, ya’ni abgor, majruh demaktir. O‘sha davr shoirlarining g‘azallarida keng qo‘llangan[1.268]. (Kafan-u jismi fig‘onimni mening yod ayla)

Miyon - domla, mavlono. Fozil kishilarga nisbatan aytiladi[1.279]. (rost, miyon Abdulla)

To‘fangandoz - miltiq otuvchi. Hozirgi kunda bu kasb egalari miltiqchi, avtomatchi, snayper hamda shu kabi nomlar bilan yuritiladi[1.296]. (qo‘shin orasida to‘fangandoz turk yigitlari ham bor)

So‘f - oq jun mato. So‘fi so‘zi ham aynan shu so‘zdan olingan[1.360]. (Bayramxon hajga boradigan mo‘ysafidlar kabi oq so‘f rido kiygan)

Sehazora - uch mingboshi, panjhora esa besh mingboshi deganidir. Ya’ni qo‘shin darkardasi. Bu lavozim egalari bizda hozirgi kunda general, qurolli kuchlar qo‘mondoni kabi nomlar bilan ataladi[1.472]. (Sehazoralik mansabidan panjhazoralik martabasiga ko‘tarildi)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘tru - qarshi, ro‘para[1.510]. (Bizning o‘trumizda mushkul hayotiy muammolar turibdir)

Doha - satr, ya’ni ikki satrli qisqa she’r[1.561]. (Abdurahimning hind tilida yozgan dohalari xalq orasida maqol yanglig‘ aytib yuriladi)

Hol - bu so‘z ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, mazkur asarda qaror topish, maqsadga yetish ma’nolarida qo‘llanmoqda[1.242]. (Yo bo‘lsa, muyassar kishiga ilm ila hol)

Forig‘ - ozod bo‘lish, tashvishdan qutulish ma’nolarini anglatadi, ya’ni bol - dil, jon; forig‘bol - dil-u jonning ozod bo‘lishi[1.242]. (Yo bo‘lsa, tamom o‘zligidin forig‘bol)

Murchal - tosh, tuproq, yog‘ochlar va shu kabilar yordamida yasaladigan ko‘tarma, tepalik[1.214]. (Sherxon qal’aga yaqin bora oladigan baland va mustahkam murchallar yasattirdi)

Mazkur tadqiqot orqali “Avlodlar dovoni” asaridagi dialektlar ilmiy uslubda tahlil qilindi. Asarda ularning ko‘pligi yozuvchi Pirimqul Qodirovning tarixiy va badiiy tafakkurini til xususiyatlarini ochishdagi mahoratini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1) Pirimqul Qodirov. Avlodlar dovoni. - Toshkent; Turon zamin. 2024

2) R. Sayfullayev. Hozirgi o‘zbek tili. - Toshkent - 2023

3) R. Sayfullayev, M. Abuzalova, N. G‘aybullayeva. Tilshunoslik nazariyasi o‘quv qo‘llanma. T: 2021

4) N. Erkaboyeva. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. Toshkent. Yosh kuch. 2023